

Theoretical Foundations of the Education of Professional Competence of Future Teachers Based on Practice: Problems and Solutions

Sanobar Abdullayeva Ibadullayevna

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

PhD, K. Karimova

UrDPI dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalashning nazariy asoslari, o'qituvchi kasbining talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish yo'llari keltirilgan. Shuningdek, kasbiy amaliyotda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik metodlarni optimallashtirish va o'qituvchi sifatida o'zini qanday rivojlantirish lozimligi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, kasbiy o'sish, pedagogik tajriba, pedagogik kompetensiya.



This is an open-access article under the [CC-BY 4.0](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) license

Kirish. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Ushbu vazifalarni bekamu ko'st amalga oshirilishi uchun bugungi kunda avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning saviyasini va bilimni uzluksiz takomillashtirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak.

O'qituvchi – O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Shunday ekan, o'qituvchining ushbu talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi ya'ni imidji, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart. Bugungi kun o'qituvchisi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, mahoratli o'qituvchi sifatida jamiyatga kerakli bo'lgan yetuk malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Yuqsak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchi yoshidagi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik

faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bu ilmiy tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Bundan maqsad, o'qituvchilik kasbiga oid zarur kompetensiyalarni amaliyot asosida o'rgatish va ularni o'qituvchilarni tayyorlash tizimida samarali tarzda qo'llash yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqotda kasbiy kompetensiya kontsepsiyasi, uning tarkibiy qismlari, hamda o'qituvchining pedagogik amaliyotdagi roli keng muhokama qilinadi. Shuningdek, kasbiy amaliyotda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik metodlarni optimallashtirish va o'qituvchi sifatida o'zini qanday rivojlantirish lozimligi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida amaliyotning o'zni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati va yangi pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilishning zarurligi muhim jihatlar sifatida ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash — bu pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan jarayon. Ushbu jarayon o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlari, balki ularning amaliy ko'nikmalarini ham shakllantirishga qaratilgan. Bu masala, asosan, pedagogika, psixologiya, didaktika va boshqa tegishli sohalar nazariyasiga asoslanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalashning nazariy asoslarini quyidagi aspektlar orqali yoritish mumkin:

Pedagogik kompetensiya va uning tarkibi - bu o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali boshqarish, o'quvchilarga bilim berish, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish imkoniyatini yaratadigan ko'nikma, bilim va malakalar to'plamidir. Kasbiy kompetensiya o'qituvchining pedagogik jarayonni mustaqil boshqarishga qodir bo'lishini, ma'lum pedagogik muammolarni hal qilish uchun nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi.

Amaliyotning o'quv jarayonidagi roli - Amaliyot o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliyotga jalb etish, ularni haqiqiy sinfda yoki ta'lim muhitida faoliyat yuritishga o'rgatish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan birlashtirish hamda o'qituvchining pedagogik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usulidir. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliyot asosidagi tarbiyalashning asosiy jihatlari quyidagicha talqin qilinishi mumkin: O'quvchilarga ta'lim berishning usul va shakllari yuzasidan bo'lajak o'qituvchilar o'z amaliyotlari orqali turli usul va shakllarni sinab ko'rishadi, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni o'rganadilar; Pedagogik tajriba orttirish yuzasidan amaliyot davomida o'qituvchilar o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rib, pedagogik muammolarni hal etishga, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga va ta'lim jarayonini boshqarishga o'rganadilar; Shaxsiy pedagogik yondashuvni ishlab chiqish yuzasidan - bo'lajak o'qituvchilar amaliyot davomida o'z pedagogik yondashuvlarini rivojlantirib, o'quvchilarga individual yondashuvni shakllantiradilar. Pedagogik mahorat va kasbiy o'sish yuzasidan esa - bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va amaliy tajribadir. Amaliyotda bo'lajak o'qituvchilar nafaqat pedagogik bilimlarga ega bo'lishadi, balki o'z mahoratlarini oshirib, ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishadilar.

Shu o'rinda kasbiy o'sishning asosiy yo'nalishlarining ko'rinishini tubandagicha ko'rsatish mumkin: Pedagogik fikrlash va tahlil qilish qobiliyati orqali o'qituvchi o'z ishini tahlil qila olish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarga individual yondashuv esa har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, shaxsiy rivojlanish yo'lini belgilashda yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion usullar bilan takomillashtirish qobiliyati

orqali yangi pedagogik texnologiyalar va yondoshuvlarni qo'llash orqali ta'limni sifatli o'tkazishga erishiladi.

Tahlil va natijalar.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda psixologik omillar ham muhim rol o'ynaydi. Amaliyot davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan munosabat o'rnatishda, ularning psixologik holatini tushunishda va ta'lim jarayonida hissiy jihatdan qanday yordam ko'rsatishda tajriba orttiradi. Masalan, kommunikativ kompetensiya o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati bo'lib, bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ochiq hamda samimiy muloqot o'rnatilishiga erishiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida empatiya hosil bo'lishiga hamda o'qituvchining va o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va ularga yordam berishdagi hissiy jihatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Agar amaliyot va kasbiy tayyorgarlikning o'zaro aloqasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarni amaliyot asosida tarbiyalashda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash juda muhimdir. Amaliyotda o'qituvchilar o'z bilimlarini real ta'lim sharoitida qo'llashni o'rganadilar va bu tajriba ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Bu jarayon davomida o'qituvchilarning kreativ fikrlash, yuzaga keladigan ba'zi muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va boshqalar kabi ko'nikmalari rivojlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni amaliyot asosida tarbiyalashda foydalaniladigan metodologik yondoshuvlarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- **Faol ta'lim metodlari:** Bu metodda o'quvchilarga faqat passiv ravishda bilim berish emas, balki ularni faol ishtirok etishga rag'batlantirish, mustaqil fikrlashga undash.
- **Sinov va xatolardan o'rganish:** Bunda o'qituvchilar amaliyotda xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin, lekin bu xatolarni tahlil qilish va o'rganish o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'ladi.
- **Refleksiya:** Bu jarayonda o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilib, rivojlanishga doir natijalar chiqarishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash masalasi, pedagogik tadqiqotlarda va olimlar asarlarida keng yoritilgan. Ushbu jarayonning nazariy asoslari, metodik yondashuvlar, amaliyot va pedagogik tayyorgarlikning o'zaro aloqasi haqida bir qancha taniqli pedagog va psixolog olimlar turli fikrlar bildirishgan. Quyida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash bo'yicha ba'zi olimlarning fikrlarini keltirib o'taman: masalan, rus pedagogi Konstantin Ushinskiy bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda amaliyotning ahamiyatini o'quvchilarning "faolligi" bilan bog'laydi. U o'qituvchini "tajribali" va "xalq ta'limining to'g'ri tashabbuskori" deb ta'riflagan. Ushinskiy pedagogning kompetensiyasini uning bilimlari, didaktik mahorati, o'quvchilar bilan o'zaro muloqotini boshqarish qobiliyatlari bilan bog'laydi. U o'qituvchining amaliyotda yuqori kompetensiyani shakllantirishi uchun uning nazariy bilimlari, pedagogik axloqiy me'yorlar va amaliy ko'nikmalarining uyg'unligi kerakligini ta'kidlagan. Bularni umumiy nuqtai nazarda oladigan bo'lsak, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash jarayoni murakkab va ko'p qirrali bir masala bo'lib, uning samarali tashkil etilishi o'qituvchining nafaqat bilimini, balki uning pedagogik mahoratini, shaxsiy yondashuvini va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishni talab etadi. Shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlashda amaliyot jarayonining to'g'ri tashkil etilmaganligi, nazariy bilimlar bilan amaliyot orasidagi uyg'unlikning yo'qligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda kamchiliklar va psixologik yondashuvlarning yetishmasligi kabi muammolar mavjuddir.

Mavjud ushbu muammolarga yechim sifatida bir qancha xususiyatlarni ko'rsatish mumkin. Bulardan bir qanchasini ko'rib chiqishimiz joiz bo'ladi. **Nazariya va amaliyotni**

uyg'unlashtirish: O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirish zarur. O'qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishlari kerak, balki amaliyotda bu bilimlarni sinovdan o'tkazishlari, real pedagogik vaziyatlarda qo'llashlari lozim. Shu maqsadda, o'qituvchilarni amaliyotga jalb qilishda turli tamoyillardan foydalanish, o'qituvchilarning o'z tajribalari va fikrlari asosida, mustaqil ishlashlariga yordam berish kerak.

Pedagogik va psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish: O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy va psixologik ko'nikmalarni o'rgatish muhimdir. O'qituvchilar nafaqat pedagogik, balki psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerak. Bu, o'qituvchilarga individual yondoshuvni amalga oshirish va ularning psixologik holatini tushunish imkonini beradi. Amaliyot jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ijtimoiy aloqalar va psixologik mashqlarni o'z ichiga olgan treninglar tashkil qilish zarur.

Amaliyotning turli shakllarini joriy etish: O'qituvchilarni tayyorlashda amaliyotning turli shakllarini (mashg'ulotlar, treninglar, seminarlarga qatnashish, guruhli ishlar, pedagogik o'yinlar) keng joriy etish zarur. amaliyot jarayonini faqat sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan cheklab qolmasdan, o'qituvchilarga turli pedagogik vaziyatlarni hal qilish imkoniyatini beradigan amaliy ko'nikmalarni tashkil etish kerak.

Mentorlik va tajriba almashish tizimini joriy etish: Tajribali o'qituvchilar va yangi pedagoglar o'rtasida mentorlik tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu tizim o'qituvchilarga amaliyotda o'z bilimlarini va ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

O'qituvchilarning shaxsiy pedagogik uslubini shakllantirish: Amaliyot jarayonida o'qituvchilarga o'z shaxsiy pedagogik uslubini ishlab chiqish imkoniyatini berish lozim. Bu, o'qituvchining individual pedagogik yondoshuvini va kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Ushinskiy kabi olimlarning yondoshuvlari, o'qituvchining amaliyot asosida o'z shaxsiy pedagogik uslubini topishiga yordam beradi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, psixologik yondoshuvlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llash va mentorlik tizimi muhim rol o'ynaydi. Amaliyot o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi va ularning kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun, ta'lim tizimida amaliyotga alohida e'tibor berish zarur.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash masalasida olimlar bir nuqtada jamlanadilar: amaliyot — bu nafaqat o'qituvchining nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazish, balki uning pedagogik va psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilarga individual yondoshuvni amalga oshirish, hamda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga qaratilgan muhim jarayon. Amaliyot o'qituvchining kasbiy shakllanishida markaziy o'rin tutadi va ularning kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini amaliyot asosida tarbiyalash jarayoni pedagogik, psixologik va metodologik nazariy asoslarga tayanadi. Amaliyotning o'zi esa o'qituvchining nazariy bilimlarini real ta'lim muhitida sinab ko'rish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish o'qituvchilarni yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lgan mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faolishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi 05.06.2018 yildagi PQ– 3775 –sonli Qarori
2. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF 5748-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" (3-bob, 3-paragraf), Toshkent-2019.

3. Azizxodjayeva N.N. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar - Toshkent, 2007. – B. 14-23.
4. Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent:”Fan” 2006. – B. 76.
5. Yo‘ldoshev J. Interfaol ta’lim sifat kafolati. –Toshkent, 2008. – B. 86.